

A. QAHHOR ASARLARIDA GENDER STEREOTIPLARINING NAMOYON BO'LISHI

Unarova Xafiza¹

SamDTU akademik litseyi

KEYWORDS

genderolingvistika, nasriy asar tili, sotsial chegaralangan so'zlar, frazeologizmlar, badiiy nutq, yozuvchi va qahramon nutqi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Abdulla Qahhor hikoyalari tilining sotsiopragmatik xususiyatlari va asar qahramonlari tilida gender xususiyatlarining namoyon bo'lishi, genderologiyaning umumlingvistik mohiyatini aniqlash, uning boshqa turdosh, chegaradosh sohalar bilan munosabatini, uzviy aloqadorligini ta'minlovchi jihatlarni, shuningdek, individual o'ziga xosliklarni aks ettiruvchi belgi xususiyatlari aks ettirilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15362420**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbek tilshunosligida nasriy asarlar tilining lingvistik xususiyatlarini turli xil aspektlarga ko'ra tadqiq etish, bu boradagi nazariy va ilmiy mulohazalarni tahliliy va tanqidiy asosda o'rganish, qahramonlar nutqida sotsiopragmatik hamda gender xususiyatlarini aniqlashtirish muhim vazifalardan sanaladi. Bu nuqtada asar qahramonlariga xos gender xususiyatlarni o'rganish ham voqelikning kitobxon ong ostida reallashuviga va yaxshiroq tushunilishiga yordam beradi.

Zamonaviy ilm-fan, xususan, tilshunoslik hodisalarni o'rganishga aniq fanlararo yondashuvlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Ayrim dalillarni tushuntirishda tegishli fanlardan olingan ma'lumotlarni jalb qilish zarurati antroposentrizm yo'nalishidagi ilmiy obyektlarni ko'rib chiqishda diqqatning o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy tilshunoslikda shu tariqa til hodisalariga kognitiv-pragmatik va sotsiopragmatik yondashuvlarning kirib kelishi faollashdi. Bunga bir tomondan, til, aloqa vositasi va ikkinchi tomondan, ijtimoiy ongning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan hodisa sifatida qaraladi. Til doimo inson hayoti, uining ijtimoiy faoliyati bilan bog'liqdir [3-27]. Lisoniy belgining qanday ijtimoiy vazifa o'tashi, undan qanday foydalanishni bilishi uchun insonning qaysi ijtimoiy tuzumda yashashini ham e'tiborga olish bugungi kun tilshunosligining asosiy vazifalaridandir. Bugungi kunning yangi paradigmasi bo'lgan genderolingvistika o'zi bilan

¹ SamDTU akademik litseyi o'qituvchisi

bir qator o'rganish obyektlarni olib kirdi. Nasriy asarni genderolingvistik jihatdan tahlil qilish, undagi obrazlarning gender xususiyatlarini o'ziga hos murakkablikni yuzaga chiqaradi.

Genderologiyaning umumlingvistik mohiyatini belgilash uchun, avvalo, uning boshqa turdosh, chegaradosh sohalar bilan munosabatini, uzviy aloqadorligini ta'minlovchi jihatlarni, shuningdek, individual o'ziga xosliklarni aks ettiruvchi belgi xususiyatlarini aniqlash lozim. Ma'lumki, so'zlovchi, qaysi jins yoki toifa vakili bo'lishidan qat'iy nazar, hamma uchun yagona bo'lgan lisoniy tizimdan foydalanadi. Ammo, ta'kidlash o'rinliki, har bir shaxsning nutqiy yoki lisoniy qobiliyati va imkoniyat darajasi turlicha bo'lishi aniq. Tilshunoslikda nasriy asar tilining gender xususiyatlarini tadqiq etishda qiyosiy tahlil usullaridan unumli foydalanish kutilgan natijalarni berishi shubhasiz.

Shunisi e'tiborliki, har bir yozuvchi asarida so'z qo'llash jarayonida ham o'z uslubini namoyon qiladi – natijada bir yozuvchining tili ikkinchi yozuvchining tilidan ozmi –ko'pmi farqlanib turadi. Masalan, Oybek romanlari tilida epiklikka, liriklikka moyillik sezilib tursa, A.Qahhor asarlari tilida esa kinoyalar, kesatqlar, qochiriqlar ko'p uchraydi – unda hajviylikka moyillik bor. Chinakam san'at asarlari tili xalqchillik ruhi bilan sug'orilgan bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda san'at asarida qo'llanilgan har bir so'z, jumla, maxsus leksik resurslar va tasvir vositalari, poetik figuralar, so'z o'yinlari va hokazolarda ifodalangan fikrlar kitobxonlar ommasiga tushunarli bo'lishi –yozuvchi xalqning dilidagi, tilining uchidagini topib aytishi, xalq ruhi kayfiyatlarini, orzu –umidlarini ifodalashi kerak. Buning uchun yozuvchi, albatta, kitobiy til va uslubdan qochishi, jonli xalq tili va uslubiga yaqinlashishi lozim.

Kishilar muloqoti jarayonida muayyan tasvir maqsadi bilan o'zga tilga oid so'z va iboralar qo'llanishi kuzatiladi. Tilning lug'at sathiga leksik birlik sifatida kiritilmagan, ammo ommaning jonli muloqotida og'zaki nutqda mavjud bo'lgan til birliklaridan badiiy nutqda foydalanishi sotsial mansublik va ichki dunyosi tasvirida shu bilan birga voqea-hodisaga personajning ijtimoiy holatini, muayyan makon va zamonga mansub ekanligini ta'kidlash maqsadida ishlatiladi. Shuningdek, voqealar bo'lib o'tayotgan o'ringa ishora qilish yoki nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning sotsial mansubligi haqida ma'lumot berish istagi bilan ham kiritilishi mumkin. Bunday birliklar varvarizm (ayrim adabiyotlarda ekzotizm) lar, deb yuritiladi.

Tilshunoslikda vulgarizmlar, deb ataluvchi haqorat so'zlarida o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko'rinib turgan bo'ladi. Bunday so'zlar ko'proq nominativ ma'nolariga ko'ra emas, ayni shu konnotativ ma'nolariga ko'ra nutqda yashaydi. Haqorat so'zlari badiiy asarlarda, asosan, kommunikantlar nutqida ishlatiladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni qaysi sotsial tipning (jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqei, yoshi kabilari) nutqida ishlatilayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qo'llanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim bo'ladi. Misollar:

Uni adovat va nafrat bilan boshdan-oyoq kuzatgan ayollardan biri burilib atelyedan

chiqib ketar ekan:

– Xo‘rozqandga o‘xshamay o‘l! – dedi.

– Qarigan chog‘ida xo‘ rozqand yalamay domla ham o‘lsin!– dedi yana biri (“To‘yda aza” hikoyasidan)[1-111].

O‘zbek tilida shunday frazeologizmlar mavjudki, ular faqat feminin iboralar sifatida e‘tirof etiladi. Jumladan, “burnini erga ishqamoq”, “baqbaqangdan akang”, “dabdalasini chiqarmoq”, “jag‘ini ezib qo‘ymoq”, “otimni boshqa qo‘yaman”, “quling o‘rgilsin”, “haromi”, “yuzimga tuflang” kabi iboralar, asosan, erkaklar nutqida qo‘llanishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi.

Kapitan so‘ridan tushar ekan, menga ko‘z qisdi.

– Bunaqa maxluqni hamisha ko‘z o‘ngida tutish, qilmish-qidirmishidan, niyatlaridan xabardor bo‘lib turish zarur: bitta-yarimtaning oyog‘idan oladigan bo‘lsa, **jag‘ ini ezib qo‘yish** oson bo‘ladi. (“Ig‘vogar” hikoyasidan)[1-149].

O‘zbek erkak va ayollar nutqining leksik, frazeologik jihatdan xoslanishi, ayniqsa, qarg‘ish hamda so‘kislarda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Kapitan uning hikoyasini aytib berdi.

– Men bu marazni to‘rt yildan beri bilaman. Bu maraz to‘rt yildan beri meni xilvatga tortadi, to‘rt yildan beriqulog‘imga shivirlaydi... (“Ig‘vogar” hikoyasidan)[1-148].

O‘zbeklarda vulgarizmlarning ayollar nutqida ko‘p uchraydigan turi qarg‘ishlar hisoblanadi. Ular jahllari chiqqanda, ko‘pincha, qarg‘amay turolmaydilar.: “qurib ketsin”, “og‘zidan qoni kelsin”, “uyi kuysin”, “boshingdan ordona qolsin”, “oti o‘chsin”, “jazosini xudo bersin”, “biri ikki bo‘lmasin”, “kosasi oqarmasin”, “xudodan topsin” va hokazo.

Qurib ketsin! – dedi u yig‘lamsirab. – **O‘qishing boshingdan ordona qolsin, Maston!**.. Qo‘y, e y... erimdan qolmayin!.. (“Maston” hikoyasidan)[1-156].

Xotin turayotib baralla yig‘lab yubordi.

– Bu **yer yutkur** qanday balo ekan!.. Odamlarday gulu-taga, tuzga, kesakka boshqorong‘i bo‘lsam-chi! (“Anor” hikoyasidan)[1-73].

– **Sho‘rginam qursin...** ko‘rmaysizlarmi... Besh-olti yildan beri bitta paypoq olib bergani yo‘q-ku, ishlab-ishlab topgan pulimga qilgan hamma kiyimlarimga kerosin sepib o‘t qo‘ydi... Shu ustimdagi ish kiyimim bilan qoldim... (“Jonfig‘on” hikoyasidan)[1-182].

Kommunikantlarning ayol yoki erkak sotsial tipiga mansubligi muloqot jarayoni uchun ahamiyatlidir. Darhaqiqat, ayol yoki erkak nafaqat biologik va fiziologik jihatdan, balki ularning nutqi ham bir-biridan farqlanadi. O‘zbek ayollari, asosan, yoshi katta muloqot egalari nutqiga xos aylanay, girgitton, o‘rgilay, qoqindiq kabi so‘zlar ijobiy ma‘no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar sanaladi. Ular ko‘proq kekxa ayollar tomonidan qo‘llanadi. Ba‘zi o‘rinlarda erkaklar nutqida turmush o‘rtog‘iga murojaat sifatida qo‘zichog‘im, jonidan malagim, gulim kabi undalmalardan ham foydalanishini kuzatishimiz mumkin.

Asrorqul sochiqqa qo‘lini arta-yotib unga razm soldi va kulib:

- E, **qo'zichog'im**, yana yig'labsiz-da,– dedi.
- Muncha kurt-kurt qilib chaynaysiz!
- Turup shunaqa bo'ladi-da, **jonidan**.("Asror bobo" hikoyasidan)[1-103].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, nasriy asarlar tilini o'rganish orqali o'zbek tilida gender farqlanishlar, ayol va erkaklar nutqining sotsiopragmatik va gender o'ziga xosliklarini aniqlashga erishish mumkin. Bu yozuvchining asardan ko'zlagan ma'no-mohiyati o'quvchi ong ostida real voqelanishni ta'minlashi barobarida til xususiyatlari orqali asarda tasvirga olingan davr yoki jamiyatning sotsial holati haqida xabardor bo'lishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A. Qahhor. Anor. G'af ur G'ul om nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2012.
2. Адабий турлар ва жанрлар. – Тошкент: Фан, 1991. – 382 б.
3. Кирилина А.В. Гендерные исследования в отечественной лингвистике: проблемы, связанные с бурным развитием // Гендер: язык, культура, коммуникация. – М., 2002.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008.